



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

# PEDIATR

№ 3-4 (942-943)  
18-fevral, shanba  
2023-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI  
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО  
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil  
martdan chiqqa  
boshlagan

## SIFATLI TIBBIY XIZMAT ZAMON TALABI

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida bu yili amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor yo‘nalishlardan biri xalqimizning malakali va sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish etib belgilanganini ta’kidladilar.

Ajratilayotgan mablag‘lar har bir bemorga yetib borishi uchun davlat tibbiy sug‘urtasiga o‘tishni tezlashtirish ko‘zda tutilgan bo‘lib, kelgusi yili bu tizim Toshkent shahrida boshlanishi, bosqichma-bosqich boshqa hududlarda ham joriy qilinishi belgilangan. Prezidentimiz sog‘liqni saqlash tizimi ishiga to‘xtalar ekan sohadagi bir qator kamchiliklarni sanab o‘tdilar hamda: “To‘g‘ri ovqatlanish va sog‘lom turmush tarzi” yangi umummilliy harakatini mahalladan boshlaymiz. Bu harakatda yosh-u qari – barcha yurtdoshlarimiz o‘z o‘rnini topishi kerak”, – deya sohadagi muammolarga echim sifatida yo‘l xaritasi belgilab berdilar.

Aholiga birlamchi tibbiy xizmatlarni yanada yaqinlashtirish ishlari davom ettirilishi, kelgusi ikki yilda har bir oilaviy poliklinika va shifokor punktiga eng kerakli uskuna va jihozlar yetkazib

berilishi, ekspress laboratoriyalar to‘liq yangilanishi hamda yangi yilda qo‘shimcha 140 ta oilaviy shifokor punkti va poliklinikalari, 520 ta olis va chekka mahallada ixcham tibbiyot punktlari tashkil etilishi belgilangani aytiladi.

Shu bilan birga, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo‘yicha uch yillik katta dastur amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, barcha tug‘ruq komplekslari to‘liq ta‘mirlanadi va jihozlanadi, o‘rinlar soni 35 foizga ko‘paytiriladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda 15 mingga yaqin onkologik bemorlar nur yordamida davolanishga muhtojdir. Shu bois, kelgusi yilda Samarqand, Farg‘ona va Xorazmda, davlat-xususiy sheriklik asosida Radiologiya markazlarini tashkil etish loyihalari amalga oshirib boshlanishi belgilangan. Umuman olganda, sohada tizimning samarali ishlashi uchun bir qator vazifalar belgilab olindi. Xususan, Sog‘liqni saqlash vaziri Amrillo Inoyatov tomonidan yangi yilni tizimda “Korrupsiyaga qarshi kurash yili”, deb e‘lon qilinishi aholi salomatligini mustahkamlashda uchrayotgan sun‘iy to‘siqlar va muammolarni bartaraf etadi. Soha rivoji esa, albatta, xalqimizning hayot sifatini yaxshilanishini ta‘minlaydi.

Bu yo‘nalishda esa xalqaro hamkorlik ahamiyati katta. Institutimizda bu borada ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Institutimiz xodimlari 2022-yil 5-30-dekabrda Minsk jarrohlik,

transplantologiya va gematologiya ilmiy-amaliy markazi o‘quv markazida “Buyrak transplantatsiyasi” va “Buyrak biopsiyasi bilan buyrak transplantatsiyasi va buyrak transplantati” amaliyot dasturlari bo‘yicha malaka oshirdilar. Mashg‘ulotlar markazning yetakchi mutaxassislari O.V.Kalachik, O.O.Rummo, K.S.Komissarov, P.Y.Vershinin, A.V.Narbin, N.V.Rapetskaya, M.V.Smolyakova, I.P.Shturich, A.V.Nosiklar rahbarligida o‘tkazildi. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti xodimlari o‘z navbatida Belarus Respublikasidan kelgan hamkasblari bilan ham yangi bilim va tajriba orttirdilar. Bu kabi hamkorliklar O‘zbekistonda ko‘rsatilayotgan tibbiy yordam ko‘lamini kengaytirishga xizmat qilishi shubhasizdir.

2022-yil 5-23-dekabr kunlari esa ToshPTIning Nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika kafedrasida Avstriyaning Tuln universiteti klinikasida “AUREUS” dasturi bo‘yicha amaliyot o‘tashdi. Shuni ta‘kidlash kerakki, AUREUS – Avstriyan Rehabilitation Exchange with Uzbekistan loyihasi ko‘p yillar davomida nevrologiya, bolalar nevrologiyasi va tibbiy genetika kafedrasida kafedra mudiri, fan doktori, professor E.N. Majidova rahbarligida muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Amaliyot o‘tkir va erta tiklanish davrida insultdan keyingi bemorlarni neyro reabilitatsiya qilish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash va malakasini

oshirishga qaratilgan. Shuningdek, amaliyot doirasida yosh mutaxassislar 2022-yil 15-17-dekabr kunlari Avstriyaning Vena shahrida bo‘lib o‘tadigan “Neurorehabilitation for World Congress”da qatnashib, ma‘ruzalar qildilar.

Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi va NANYANG Singapur xalqaro instituti o‘rtasida imzolangan o‘zaro anglashuv memorandumiga asosan bir guruh mutaxassislar Singapurga malaka oshirish uchun yuborildi. U yerda tashkil etiladigan “Yetakchilar uchun jamoat salomatligini boshqarish” o‘quv kurslarida mamlakatimiz sog‘liqni saqlash tizimining hududiy boshqaruv apparati mutaxassislari, ixtisoslashgan markazlar filiallari rahbarlari, viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari bosh vrach va o‘rinbosarlari, tuman tibbiyot birlashmalari boshliqlaridan iborat 25 nafar mutaxassis ishtirok etdi. Ular zimmasiga Singapur Respublikasining sog‘liqni saqlashni boshqarishdagi ilg‘or tajribalarini o‘rganib, mamlakatimizda tibbiyot sohasiga tatbiq etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan. Bu kabi tajriba almashuvlar aholi salomatligini mustahkamlashda o‘z natijasini berishiga ishonamiz.

Institutimizning xalqaro miqyosdagi yutuqlarini ham alohida ta‘kidlash o‘rinli. O‘tgan yili Koreya Respublikasining Koica agentligi umumiy qiymati 5 mil. AQSH dollarlik grantlar loyihasini e‘lon qilgan edi. Ushbu grant loyihasini ToshPTI jamoasi qo‘lga kiritdi. 19-dekabr kuni institutimizda bo‘lib o‘tgan rasmiy ochilish marosimida O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘rinbosari, Koreyaning O‘zbekistondagi elchixonasi vakili, Koica hamda Younsei universiteti mutaxassislari, professor-o‘qituvchilari va yosh olimlar qatnashdi. Loyiha doirasida Younsei universiteti-

ning professor-o‘qituvchilari kelib ToshPTIning professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish va talabalarga yangi metodologiyalar bo‘yicha ta‘lim berishni o‘rgatishadi. Ushbu ta‘lim va tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirish loyihasi doirasida 4 ta yo‘nalish - tibbiy ta‘lim, hamshiralik ishi ta‘limi, ilmiy tadqiqot va axborot texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislar yetishtirib chiqarish ko‘zda tutilgan. Loyiha doirasida Koreyadan malakali va yuqori salohiyatli mutaxassislar kelib, birgalikda ta‘lim dasturini ishlab chiqishga yordam beradi. O‘zbekistonda tibbiyot sohasida mutaxassislar yetishtirishda, malakasini oshirishda ko‘maklashadi. Xususan, loyiha ishga tushgandan so‘ng ToshPTIning har bir ta‘lim dasturlari Butunjahon Tibbiyot ta‘limi faderatsiyasining akriditatsiyasidan o‘tkaziladi. Loyiha doirasida institutimizning professor-o‘qituvchilari hamda talaba-yoshlari Younsei universitetida 3 oy davomida malaka oshirib kelishadi. Loyiha natijasida ToshPTIning ta‘lim dasturi va talabalar bilimni baholash tizimi xalqaro standartlarga moslashtirilgan holda modernizatsiya qilinishi, dunyodan olinishi, pedagog kadrlarning bilim va malakasi xalqaro darajaga olib chiqishi kutilmoqda.

Yil boshidanoq ta‘lim sifatini oshirish ishlari jadal su‘ratlarda olib borilmoqda. Jumladan, shu yilning 4-6-fevral kunlari ToshPTIdagi fakultetlar va shifoxona bolalar jarrohligi kafedralariga Rossiya Federatsiyasida xizmat ko‘rsatgan shifokor, Irkutsk viloyati bolalar klinik shifoxonasida bosh shifokori, Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi, professor Yuriy Andreevich Kozlov tashrif buyurdi va yuqori texnologiyali minimal invaziv operatsiyalarni amalga oshirdi. Shuningdek, professor Yu.A. Kozlov talabalar va magistrantlar uchun

tug‘ma nuqsonlarni (anomaliyalarni) minimal invaziv yuqori texnologiyali jarrohlik yo‘li bilan davolash mavzusida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazdi.

2023-yil 11-fevral kuni esa institutimiz akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi kafedrasida butun jahonda taniqli mutaxassis, Koreya Katolik universiteti Avliyo Vinsent klinikasi kafedrasida mudiri, t.f.d. professor Ju-Xi Yun tomonidan master-klass o‘tkazildi. Master-klass davomida operatsiyaning onlayn translyatsiyasi tashkil etildi. Shuningdek, professor Ju-Xi Yun “Ginekologiya amaliyotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida ma‘ruza qildi. Bu institutimiz o‘qituvchilari, yosh mutaxassislari, magistrantlari, klinik ordinatorlari va talabalari uchun muhim mahorat maktabi bo‘ldi.

O‘z navbatida xalqaro tajribalarni o‘rganish jarayonlari yanada jadal davom etmoqda. Jumladan, institutimiz travmatologiya, bolalar travmatologiyasi va neyroxirurgiyasi kafedrasida assistenti Jamoliddin Sobirov dunyoning yetakchi klinikasi bo‘lgan Kandong shahridagi Kyunghee universiteti tibbiyot markazida professor Jo Dae Jin raxbarligida 3 oylik stajirovka o‘tamoqda. Bu kabi hamkorliklarning barchasi oliy ta‘lim muassasamizning ta‘lim sifatini yuksaltirishga va yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘tgan yil sarhisobidan ham, mamlakatimizda olib borilgan islohotlar oliy o‘qiv yurtimiz uchun ham keng imkoniyat eshiklarini ochgani va mas‘uliyat yuklaganini hamda o‘ziga xos yutuqlar qo‘lga kiritilganini yuqorida ko‘rib o‘tdik. Maqsadimiz bundan keyingi amalga oshiradigan ishlarimizni yanada rivojlantirib, oliy o‘quv yurtimiz ta‘lim sifatini xalqaro ta‘lim standartlari darajasiga olib chiqishdir.

## ILM IZLAGAN ZAFAR QUCHADI

*Kuni kecha tahririyatimizda ToshPTIning*

*Tibbiy pedagogika va davolash ishi fakulteti, Tibbiy pedagogika yo'nalishi  
6-kurs talabasi Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori  
Yusupova Zarinaxon Shuxratovna bilan musohaba o'tkazdik.*

– *Zarinaxon, yaqindagina Ibn Sino nomidagi davlat stipendiyasi sovrindori bo'ldingiz. Avvalo, ushbu yutuq bilan tabriklaymiz. Sizning bu sohani tanlashingizga nima turtki bo'lgan, talabaligingizning ilk yillarini esga olsak.*

– Rahmat, bu muvaffaqiyot na-faqat men va ustozlarimning, balki institutimizning ham yutug'idir, albatta. Bu sohaga bolaligidan qiziqqanman va orzuyim maqsadga aylanib, 2017-yilda ToshPTI-ning "Tibbiy biologiya va davolash ishi" fakultetiga a'lo ko'rsatkichlar bilan davlat granti asosida o'qishga kirdim. Mazkur oliygohda o'qishimning ilk bosqichidanoq o'z sohamdagi bilimlarimni chuqur egallashga, faol mehnat ila diqqatga sazovor talabalar qatoridan o'rin olishga intildim. Institutimizning ijtimoiy, ilmiy, ma'naviy hayotida faol ishtirok etib kelishga doim harakat qildim.

Bugungi kunga kelib 40 dan ortiq xorijiy va mahalliy ilmiy nashrlarda maqola va tezislarim chop etilgan bo'lib, ilmiy izlanishlar borasida o'z salohiyatimni yanada takomillashtirish yo'lida faol mehnat qilib kelmoqdaman. Institut, Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy va amaliy anjumanlarda faol ishtirok etib, kelmoqdanab. ToshPTI talabalar Respublika fan olimpiadalarida, xalqaro konferentsiyalarda, Yevropa va Rossiya xalqaro konferentsiyalari, forumlar va tanlovlarda yosh olimlar va talabalar qatorida ma'ruzalarim bilan ishtirokim – bularning barchasida muvaffaqiyatli natijalarga erishayotganligim men uchun nihoyatda muhimdir. Bular meni ilm yo'lida yanada izlanishga chorlamoqda.

– *Stipendiant bo'lguncha bir qancha ilmiy-ijodiy izlanishlar olib borgansiz, o'tgan yillar davomida amalga oshirgan ishlaringizga nazar tashlasak.*

– Institut ilmiy jamiyatining a'zosiman, o'qish va ilmiy ishlarimdagi yutuqlarim, institut hayotidagi faoliyatim natijasida 2019-2020 o'quv yillarida professor X.Z.Zoxidov nomidagi stipendiya sohibi bo'lishga muvaffaq bo'ldim. Institutdagi o'qishimning ilk yillaridanoq ToshPTI va boshqa tibbiyot institutlari tomonidan o'tkaziladigan talabalar ilmiy-amaliy anjumanlari, turli xil tadbirlarning faol ishtirokchisi bo'lib keldim. Jumladan, 2019-yilda ToshPTI talabalar Respublika fan olimpiadasi I-bosqichida "Normal fiziologiya" fanidan 2-o'rinni egallab, II darajali diplom bilan taqdirlandim, Samarqand davlat tibbiyot institutining "Zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalalari" xalqaro konferentsiyasining II darajali diplomiga ega bo'ldim (22-23-iyun 2019-y.), Toshkent davlat stomatologiya institutida 2019-yil 22-23-iyunda o'tkazilgan Xalqaro debatlar chempionatidagi hamda ToshPTI "Foreign Languages and Foreign Experience in Development of Modern Medicine" xalqaro konferentsiyasidagi faol ishtirokim va boshqalar shular jumlasidandir. Shuningdek, qator Rossiya xalqaro olimpiadalarida 1-o'rin sohibi bo'lganman (2020, 2021 yillar), xalqaro konferentsiya, forumlar va tanlovlarda onlayn ma'ruzalarim bilan ishtirok etdim (20.05.2018 Varshava, 28.12.2018 London, 26-27.11.2018 Ukraina, 28.12.2018 Moskva, 15-16.07.2019 Ufa,



25-28.09.2019 Nur-Sultan, 16-18.05.2020 Ottavava boshqalar) hamda ko'plab Respublika konferentsiyalarida yosh olimlar va talabalar qatorida faol qatnashib, muvaffaqiyatli natijalarga erishdim. Shu bilan birga, qator xalqaro ilmiy jurnallardagi ko'plab maqola va tezislarim chop etib kelinmoqda. Qo'lga kiritgan bu yuruqlarim o'zimga ichonchni yanada mustahkamlab, ko'proq izlanishga undamoqda.

– *Ilm izlab zafar quchibsiz. Kelajakdagi rejalaringiz qanday?*

– Institutimizning iqtidorli talabalari safidan o'rin olib, "Ibn Sino" stipendiyasi sovrindori bo'lganim uchun, birinchi navbatda, o'z oliygohimga, mohir ustozlarimga minnatdorchilik bildiraman. Kelajakda o'z ilmiy izlanishlarim natijasida tibbiyot sohasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishishga, mamlakatimiz ravnaqi, xalqimiz va tibbiyotimiz kelajagi uchun munosib hissamni qo'shishga, ularning ishonchini oqlashga harakat qilaman.

– *Mazmunli suhbatigiz uchun tashakkur, o'qish va ishlaringizga yuksak parvozlar tilaymiz!*

*Suhbatdosh Dilafro'z  
CHORIYEVA*



## III XALQARO FAN OLIMPIADASIDAGI G'OLIBLIK

2022-yilning 16-17-dekabr kunlari Samarqand davlat tibbiyot universitetida

“Samarqand - 2020” III Xalqaro fan olimpiadasi tashkil etildi. Bu olimpiadada ToshPTI ning 11 nafar iqtidorli talabalari ham oflayn tartibda ishtirok etishdi. Ular 10 ta fan va 1 ta ilmiy ma'ruza bilan qatnashishdi. Tanlovda fan bo'yicha 1-o'rin sohibasi bo'lgan 4-kurs talabasi Gulnoza G'aybullayeva bilan g'oliblik taassurotlari haqida suhbatlashdik.

– **Xalqaro miqyosda bo'lgan olimpiadada qatnashish sizga qanday mas'uliyatlar yukladi?**

– Oliyohda 5 yildan beri birinchi marta olimpiadaga qatnashishim. To'g'risini aytganda, juda kuchli mas'uliyat his qilmadim, lekin institutimiz nomi va ustozlar ishonchini har doim yodimda tutdim.

– **Bu tanlov uchun siz qancha muddat tayyorgarlik ko'rdingiz?**

– 3-kurs paytimda (karantin vaqti edi) tez orada shifokor bo'lib insonlar salomatligi bilan ishlash, ko'proq bilimlarni o'zlashtirish, ya'ni AQSh va Yevropa tibbiyot oliygohlari dasturlarini o'rganishni boshlaganman. Olimpiadada asqotgan bilimlar asosini o'sha paytdan olishni boshlaganman.

– **Olimpiadada qatnashgan nechta OTM talabalari orasidan g'oliblik sizga nasib qildi?**

– Bu tanlov 34 ta fundamental va klinik fanlardan o'tkazildi va unda 76 ta tibbiyot oliygohlaridan 3000 dan ortiq talabalar onlayn va offlayn ko'rinishda ishtirok etishdi. Menga pediatriya yo'nalishi bo'yicha offlayn formatda 13 ta talabalar orasida g'oliblik nasib qildi.

– **Bellashuv davomida sizga kuch bergan ya'ni “motivatsiya” bo'la olgan so'z yoki biror yaqiningiz bormi?**

– Ota-onamni, ayniqsa oyimni har qanday holatda qo'llab-quvvatlashlari doimo kuch bergan. Olimpiadani yuqori saviyada tashkillashtirishganligi va biz bilan borgan o'qituvchilarimiz

menga va boshqa talabalarga motivatsiya berdilar.

– **Hayotdagi shioringiz qanday va kelajak uchun qo'ygan maqsadlarinigiz haqida o'rtoqlashsak.**

– Aynan bitta shiorim yo'q, biror bir maqsadni ko'zlagan bo'lsam unga qo'rqqmasdan dadil qadam qo'yishni to'g'ri deb bilaman. Yaqin kelajakdagi maqsadlarga kelsak o'zimni asosan ta'lim yoki sog'liqni saqlash yo'nalishida emas, bemorlar bilan ishlovchi mutaxassis sifatida ko'raman, shuning uchun klinik ordinaturaga tayyorgarlik hozirdan boshlangan. Kelajakda tanlagan yo'nalishimda katta klinik tadqiqot o'tkazish niyatidaman.

– **Suhbat uchun tashakkur. Kelajakdagi katta marralarni zabt etishingizda tilakdoshmiz!**

## QALBLARNI YORITGAN ADABIY UCHRASHUV



ToshPTI'da Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning hayoti va ijodini o'rganish va targ'ib etishga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, yaqinda bo'lib o'tgan adabiy uchrashuv ham ushbu zabardast shoir adabiy

merosiga bag'ishlandi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi O'rozboy Abdurahmanov, “Yoshlik” jurnali bosh muharriri, yozuvchi Nurilla Chori, institut Berdaq bo'yicha ilmiy-ijodiy maslahatchisi shoira Dilafro'z Choriyeva hamda

institut professor-o'qituvchilari, talaba yoshlari ishtirok etishdi.

Tadbir mehmonlari talaba yoshlarga Bardaqning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berib, dunyo adabiyoti vakillarining shoir ijodi va shaxsiga bildirgan fikrlarini aytib o'tishdi. Adabiyot va kitobxonlikning shaxsning mutaxassis bo'lib shakllanishidagi ahamiyati haqida ilmiy-hayotiy misollar keltirib o'tishdi. Berdaq ijodining o'zbek va qoraqalpoq adabiyotida tutgan o'rni, ahamiyati beqiyosligi haqida nutq so'zlashdi. Talaba yoshlar tomonidan qoraqalpoq xalqining lirik shoiri Berdaq qalamiga mansub she'rlar o'qildi. Talabalar O'rozboy Abdurahmanovga ijodi haqida o'zlarini qiziqtirgan savollarni berishdi. Adabiy uchrashuv yig'ilganlarda katta taassurot uyg'otdi.

## BUYUKLARNI YOD ETIB

Dunyoda har bir millatning o'ziga xos tarix silsilasi, hamisha faxr tuyg'usini anglatib keluvchi ajdodlari bordir. Yosh avlodning tinch-totuv hayot kechirishi uchun jon fido qilgan qahramonlar va buyuk bobokalonlarimizning xotirasi doim yodimizdadir.

9-fevral kuni o'zbek adabiy tilining asoschisi, she'riyat mulkining sultoni – Hazrat Alisher Navoiyning tavallud kuni ko'tarinki ruhda o'tkaziladi. Bu kun har bir oliy o'quv yurtida, o'ziga xos tarzda nishonlanadi. Mana shu yil 9-fevral arafasida ToshPTIning professor-o'qituvchilari va talabalari ham bir qator oliygoh vakillari qatorida "Adiblar xiyoboni"ga ulug' mutafakkir bobomizning haykali poyiga gulchambar qo'yib, Alisher Navoiy xotirasini yod etdilar. So'z avvalida, Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va yoshlar masalari bo'yicha prorektor Muborak Ahmedova Navoiy bobomizning o'zbek adabiyotidagi beqiyos o'rni, uning salmoqli umri, yashab ijod qilgan yillari hamda qoldirgan adabiy merosi, xalq uchun qilgan xayrli ishlari to'g'risida talabalarga o'z fikr va mulohazalarini aytib o'tdilar.

Shundan so'ng talabalar Hazrat Navoiyning pand-nasihat ruhidagi hikmatlari ustida fikr almashishdi. Navoiy bobomiz nafaqat ilm-ma'rifat, adabiyot, balki tibbiyot borasida ham salmoqli hikmatlar qoldirgan. Hazratning: "Tabib agar, kasbida mohir, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qo'pol so'z bo'lsa, bemorlarni har qancha



muolaja qilganda ham baribir uning mijozida o'zgarish paydo qila olmaydi" – degan so'zlari juda ham o'rinlidir. Shifokorlar eng avval inson ruhiyatini davolay bilishi zarur. Tibbiyot institutimizda ta'lim olayotgan barcha tolibi ilmlarimiz buyuk mutafakkirning shu kabi hikmatlaridan o'zlariga namuna olishlari, kelajakda haqiqiy shifokor bo'lib yetishishlarida turtki bo'lsa ajab emas.

Ona zaminimizda yashab, uning nomini dunyolarga tanitgan buyuk allomalarmizning oltinga teng hikmatlari hayotimizni mash'al misol yoritib kelmoqda. Mana shunday ajdodlarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud ayyomi ham har yili keng ko'lamda nishonlanadi. Bu yil ham ToshPTIning O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida Bobur tavalludining 541 yilligiga bag'ishlab davra suhbatlari o'tkazildi.

Davra suhbatida kafedraning professor-o'qituvchilari va 101-102-guruh talabalari

ishtirok etishdi. Suhbat boshida O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, dotsent Kavсар Turdiyeva Bobur Mirzoning ko'p sinovlar ostida qi-yinchlikda o'tgan umri haqida ma'ruza qildi. Haqiqatan ham, Bobur umri davomida bolalik davridan hayotining so'ngigacha qadar juda ko'p xiyonatlar qurboni bo'lgan. Biroq u hech qachon mashaqqatlar oldida taslim bo'lmagan.

U shunday sabotli va mard inson edi. Tashkil etilgan kechada bir necha talabalar Boburning ruboiylaridan namunalarni yod aytishdi. Buyuk sarkardaning har bir ijod mahsulida, jumladan, ruboiy, fard, g'azallari hamda o'zining taqdirini hikoya qiluvchi asari – "Boburnoma"da ham Bobur Mirzoning xayolini, yuragini o'z vatani visoliga yetish orzusi bir lahza bo'lsin tark etmaganini bir o'qishdayoq anglash mumkin. Ona yurt uchun shu qadar sodiq bo'lgan farzand, ulug' shoirning xotirasi bir umr yodimizdadir.



## REANIMATSIYAGA 14 KUNLIK SAYOHAT



Men uchun ilm olishning bir nechta bosqichi bor: ilmning avvali – jim turish (menimcha shuning uchun ham go‘daklar tug‘ilganda so‘zlashmaydilar), ilmning poydevori – tinglash, ilmning uchinchi darajasi yod olish, to‘rtinchisi – unga amal qilish va so‘nggi beshinchisi – uni boshqalarga o‘rgatishdir. 14 kunlik amaliyot mobaynida shu qoidaga rioya qildim va bu usul menga juda ham qo‘l keldi.

Reanimatsiya (re - qayta va animatio — jonlantirish, tiriltirish) — klinik o‘lim holatidagi bemorlarni tiriltirish, shuningdek, hayotiy muhim a‘zolarining baxtsiz hodisalar, kasallik va uning asoratlari natijasida to‘satdan yo‘qolgan yoki o‘zgargan funksiyalarini tiklash uchun ko‘riladigan chora-tadbirlar majmuidir. Nafas olish va yurak faoliyati to‘xtaganda yoki amalda nafas ham, qon aylanish ham organizm ehtiyojini ta‘minlay olmay qolgan hollarda reanimatsiya qo‘llaniladi.

Boshida reanimatsiya bo‘limida malaka oshirishimni eshitib biroz havotirga tushdim, le-

kin sal o‘tib avval ham bu yerda bo‘lganimni esladim va bu menga taskin berdi. Men reanimatsiya bo‘limida juda ko‘p bilmagan narsalarimni o‘rgandim. Birinchi o‘rinda bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri bemor ya‘ni bolalar bilan kontaktga kirishish, ularni parvarishlash, ki-yintirish, ovqatlantirish, yuvintirish va hokazolarni. Keyinchalik muhim hayotiy ko‘rsatkichlarni o‘lchash (harorat, qon bosimi, saturatsiya, puls, nafas) hamda menga eng ko‘p yoqqan manipulyatsiya bu sanatsiya (og‘iz, burun bo‘shliqlarini ortiqcha suyuqlikdan tozalash) bo‘ldi. Bundan tashqari, reanimatsiya bo‘limida chaqaloqlarga katetrlar qo‘l yoki oyoqqa emas bevosita o‘mrov osti tomiriga qo‘yilishini bilib oldim. Shuningdek, bemorlarning aksariyati chaqaloqlar tashkil etishadi, ular esa ovqatni og‘zi orqali yuta olmaydilar va ularga ovqat zond orqali yuboriladi.

Qisqacha bemorlar haqida so‘zlaydigan bo‘lsak, ushbu bo‘limga bemorlarni har xil bo‘limlardan olib kelishadi. Pulmanologiya bo‘limidan olib kelinadigan bemorni nafas olishida muammolar mavjud bo‘lgani sababli, unga qo‘shimcha nafas olish qurilmasi o‘rnatiladi. Kardiorevmatologiya bo‘limidan kelgan bemorni yuragida nuqsoni bo‘lgani uchun yaqinda rejalashtirilgan operatsiyaga tayyorlashyapti. Dermatologiya bo‘limidan olib kelingan bemorning terisi bir kunda 3 mahal parvarish qilinib 4 kunda o‘z bo‘limiga qaytarildi.

Reanimatsiya bo‘limida og‘ir bemorlar ham mavjud, ular maxsus qurilma orqali nafas oladilar va qurilma o‘chirilishi bilan, av-

valo nafas olish jarayoni to‘xtaydi, keyinchalik yurak va miya ham funksiyalarni bajarishdan to‘xtaydi. Afsuski, bemor vafot etadi. Ba‘zi bir ota-onalar umid qilib bir necha oylab farzandini qurilmadan chiqib o‘zi nafas olishini kutishadi, yana ba‘zilari shunchaki qurilmani o‘chirib azoblardan farzandlarini “ozod” etadilar. 14 kun davomida 15 nafar bemor bilan tanishib chiqqan bo‘lsam, ulardan 6 nafari tuza-lib uyiga qaytishdi, 3 nafari vafot etdi, 2 nafari boshqa bo‘limga ko‘chirildi, 4 nafarining muolajalari davom ettirilmoqda.

Ushbu bo‘limda ishlash menimcha juda ham katta jasorat talab qiladi. Bo‘limda nafaqat shifokorlar, balki hamshiralalar ham o‘ta ehtiyotkorlik bilan ishlashlari lozim. Hech qanaqa o‘zboshimchalikka yo‘l qo‘yilmaydi, chunki bu hayot-mamot masalasidir.

Har kuni o‘lim bilan olishib tirik qolish uchun kurashayotgan bolakaylarni ko‘rib, odam sog‘-salomat ekanligiga beaded shukr qiladi. Bu bolakaylarni hayot uchun kurayotgani, ota-onasining ko‘z yoshi va ularning shuncha dard bilan hali-hamon yo o‘zi, yo qurulma orqali nafas olib turgani, avvalo Yaratganning bir inoyati hamda shifokorlarning zahmatli mehnatlarining samarasidir. Shunday sharaflilik kasbni tanlaganim, bu orqali bolajonlar salomatligini saqlashga hissa qo‘shishim mumkinligi menda faxr hissini uyg‘otdi. Bu amaliyot menga ulkan mas‘uliyat yukladi.

**Guli HAYITMURODOVA,**  
2-pediatriya fakulteti,  
116-guruh talabasi

## “SHARAFLI KASB EGASI BO‘LAMAN”

Bolaligimdan odamlarning dardlariga davo bo‘luvchi kasb egalari havas qilardim. Shifo istab shifoxonaga kelgan, tuzalgandan so‘ng esa, yuzlaridan qanchalar baxtiyor ekanligi sezilib turgan insonlarni ko‘rish faxrdir. Shu bois men ham shifokor bo‘lishni, insonlarga quvonch ulashishni niyat qildim.

Bu orzuyim meni ToshPTI ga o‘qishga kirishimga sababchi bo‘ldi. Bizga o‘tiladigan barcha fanlarga qiziqishim kundan-kunga ortib bordi. Amaliyot darslarida ustozlarimiz har bir darsni kichik nuqtasigacha tushuntirib berishlari, mutaxassisligimni yana ham chuqurroq bilishim kerakligini anglatardi. Nazariy bilimlar bilan birga amaliyot darslarini ham yaxshi o‘tilishi menda zarur ko‘nikmalarni hosil qila boshladi.

23-yanvarda bizning fakultet uchun shifoxonadagi haqiqiy amaliy bilimlarni o‘rganish kunlari boshlandi. Men bu imkoniyatdan yana ham xursand bo‘ldim. 1-sonli klinik bolalar shifoxonasida Chala tug‘ilgan yoki qiyinchilik bilan tug‘ilgan bolalar bo‘limida amaliyot o‘tayapmiz. Bu bo‘limda fidoiy shifokorlar



bor. Ulardan bolalarga qanday tibbiy muolajalar ko‘rsatishni, bir xil kasalliklarni qanday davolashni va bolalarni qay usullarda tekshirishni o‘rganyapmiz. Bizning bo‘limda asosan billirubini baland chaqaloqlar davolanadi. Billirubin aslida bola tug‘ilganidan 14 kun o‘tgach ko‘tarilishni boshlar ekan. Uning me‘yoriy holati esa, 20 dan 80 gacha. Ona homilador vaqtida, o‘z parvarishiga e‘tiborli bo‘lishi zarur. Hattoki oddiy shamollashdan ham o‘zini as-rashi, shunday bo‘lgan holda tezlik

bilan buning oldi olinishi muhimdir. Aks holda bu tug‘ilajak chaqaloqning sog‘lig‘i uchun yomon asoratlar qoldiradi.

Klinikadagi amaliyot saboqlari tufayli, ko‘p bilimlardan xabardor bo‘lishim, menga juda katta samara bermoqda. Insonlarning salomatligini o‘ylash shifokorning oliy burchidir.

*Shahnoza AKBARXODJAYEVA,  
Davolash ishi fakulteti,  
116-guruh talabasi*

## BERDAQ IJODIYOTI UMUMINSONIY MEROS

Berdaq adabiyotda o‘zining takrorlanmas she‘riyati bilan ajralib turadi. Uning she‘rlari matning sodaligi eng muhim jihatlaridan biridir. Ijodkor hayotidagi qiyinchiliklarga qaramay buyuk siymo bo‘lganligi hozirgi kun yoshlariga o‘rnak bo‘la oladi. Berdaq she‘riyatida vatanga sadoqat, mehnatkash xalqning dardi, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat kabi g‘oyalarni yoritgan.

Berdaq demokrat shoir sifatida o‘z davridagi voqealar va ijtimoiy munosabatlarni ilg‘or mavqelarda turib baholaydi. Shoirning tarjimai holi haqidagi ma‘lumotlar juda oz. U o‘zining “Umrim” nomli qo‘shig‘ida o‘zining avtobiografiyasini qoldirgan.

Berdaq Bibitxon ismli qizga uylanib, besh qiz va ikki o‘g‘il (Hurliqo, Hurliman, Oyimxon, Aymanbey, Nozibek va boshqalar) ko‘rgan. Lekin o‘rta yoshlarda bo‘lganida xotini

vafot etgach, Bog‘dagul degan qizga uylanib, yana bir qiz va bizning taniqli shoirimiz dunyoga keladi. Katta ro‘zg‘orni tebratish uchun u ovulma-ovul yurib baxshilik qiladi. Lekin bir umr boshi faqirlikdan chiqmaydi.

Berdaq yurti mustaqil bo‘lishini va xalqi baxtli yashashini butun umri davomida orzu qilib yashagan. U she‘rida xalqning bandi bo‘lib chorasiz qolganini va bunday yashagandan zindon yaxshiroq deb bot-bot takrorlaydi. “Ahmoq podshoh” asarida Berdaq o‘zini ertaksevarligini aytib o‘tadi. Bu doston romantik bir ruhda yozilgan. Asar nihoyasida Gulzor va Anor podshoh kirdikorlarini aniq bilgach, podshohga qarshi isyon ko‘taradi va bu yo‘lda xalqni birlashtirishadi. Asar nihoyasida muallifning orzusi ro‘yobga chiqadi, xalq esa niyatiga yetadi.

Berdaqning bu asaridagi xalqning jasorati bizga Cho‘lponning “Xalq

dengizdir, xalq to‘lqindir, xalq kuchidir” degan buyuk so‘zlarini eslata-di. Har ikki ulug‘ shoir o‘z davridagi muammoni romantik va realistik yo‘sinda aks ettirgan edilar. Tarixiy mavzudagi “Omongeldi”, “Oydo‘sbobo”, “Ernazarbiy” dostonlarida qahramonlik va vatanparvarlik g‘oyalari tarannum etiladi. “Kerak” she‘rida xalqiga odil podshoh kelishiga umid qiladi. U “Shajara” dostonida Markaziy Osiyo mintaqasidagi ayrim xalqlar, xususan qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi, tarixiy yo‘li, shajarasini badiiy aks ettiradi. “Shajara” tarixiylik bilan badiiylik birlashib ketgan asardir.

*Gulnoza NOMZOVA,  
Tibbiy pedagogika  
va davolash fakulteti,  
210-guruh talabasi*

*Ibn Sino bobomiz: "Bemorni davolashdan oldin, uning ruhiyatini davolash lozim", – deganlar. Ijodkor talabalarimiz shu tamoyilga asoslanib, quyida inson tanasida ayrim jiddiy kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keluvchi noxush ruhiyat manzaralarini yoritishga ijodiy yondashgan.*

## GIPOYAXSHILIK

Gipoyaxshilik – bu insondagi yaxshilik, shuningdek uni ekvivalentlari bo'lmish mehr, sadoqat, ezgulik kabi moddalarni keskin kamayib ketishi natijasida paydo bo'ladigan kasallik. Bu ortirilgan kasallik bo'lib, sekin-astalik bilan organizmni egallab oladi. Davolashning qiyinchiliklaridan biri bemor kasallikka chalinganini sezmaydi va tan olmaydi.

Turtki omillari: tashqi muhitdan mehr moddasini o'zlashtirilmisligi, boylikka ruju qo'yish (bu omil ko'plab kasalliklarni keltirib chiqaradi), nartsissizm (o'zini haddan tashqari yaxshi ko'rish), ochko'zizm.

Zararlanuvchi organ: aql, idrok va qalb.

Patogenezi: birinchi o'rinda qalb bu moddaning kamayib ketishidan aziyat chekadi, ushbu reyaksani to'xtatish uchun miya osti bezlari achinish, hamdardlik va sevgi garmonlarini ajratishini to'xtatib o'rninga kibr, befarqlik garmonlarini ajratadi. Bu garmonlar insonni tanib bo'lmas holatga tushirib qo'yadi.

Klinikasi: yuqorida aytib o'tganimizdek, bemor kasallikni tan olmaydi va hech nimadan shikoyat qilmaydi, aksincha (ba'zi holarda ushbu kasallikka sababchi bo'lgan omil) bemorning yaqinlari shikoyat qilishadi: mehsiz, bee'tibor, zaiflarga yordam bermaydi, kattalarni hurmat qilmaydi, kichiklarni yoqtirmaydi, o'zini qonunlarini o'rnatib olgan, asabiy va agressiv.

Anamnez: yo'ldan adashgan insonga yordam bermaslik, qariyalarga jamoat transportida joy bermaslik va yuklarini ko'tarishmaslik, do'stiga qiyin vaziyatda qo'l uzatmaslik va hokazo.

Shifokor tavsiyasi: bemorga do'st kerak, uni bu holatdan kech bo'lmasidan chiqarib olish kerak. Zero tushunish kerak bu kasallikda insonda mehr moddasi kamaygan, organizm o'ziga yetishmagan bir paytda undan yana mehr kutish bu mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

Retsept: mehrol - 3 mahal bir umr.

Guli HAYITMURODOVA

## YURTIM

*Yurtim seni anglamagan,  
Yomonlarga qasd bo'lganman,  
Quchog'ingni to'ldirar gul -  
Gullaringga mast bo'lganman.*

*Amir Temur shoningni deb,  
Dunyolarga dovrug' soldi.  
Alisher ham ishqingni deb  
Qo'llariga qalam oldi.*

*Bilmam qaysi jahongashta  
Ochdi ipak yo'llarini.  
Ulug'beging ochib berdi  
Ko'hna samo sirlarini.*

*Bobur judo bo'lib sendan  
Hindistonda shoh bo'ldi-ey.  
Ne o'g'lonlar jon fido qib  
Sening uchun goh o'ldi-ey.*

*Chingiz bosgan oyog'ining  
Izlarida gullar so'ldi.  
Shiroq jondan sevar edi  
Sening uchun shahid bo'ldi.*

*Buyuklarga bo'lding beshik  
Tuproq'ingdan oltin undi,  
Egilmagan yovga boshing  
Uzra mag'rur humo qo'ndi.*

*Tarixingda qoldi mangu  
Turon degan noming abad,  
Ishonchingni oqlagaydir  
Farzandlaring har on, albat.*

Mardona TOSHMAMATOVA,  
2-pediatriya fakulteti,  
108-guruh talabasi

## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:*

**PROFESSOR:** Biofizika, tibbiy informatika.


**DOTSENT:** Akusherlik va ginekologiya, bolalar ginekologiyasi; Gistologiya, patologik fiziologiya

**KATTA O'QITUVCHI:** Anatomiya patologik anatomiya;

**ASSISTENTLAR:** Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ; Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil qilish va boshqarish; Travmatologiya va ortopediya, neyroxirurgiya; Bolalar kasalliklari propedevtikasi; Teri va tanosil, bolalar teri va tanosil kasalliklari, OITS; 1-Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muxofazasi; Umumiy xirurgiya, topografik anatomiya va operativ xirurgiya asoslari;

**Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1 oy. Manzilgoh: Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 18.02.2023.**

 <p><b>PEDIATR</b></p> <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A. Nosirov, D. Choriyeva, <b>Nashr uchun mas'ul:</b> M. Abduhamidova</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o'rinbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, H. Abidov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>"XALQ NASHRIYOTI" XKda chop etildi. <b>Manzil:</b> Toshkent sh. Qorasaray ko'chasi, 316 uy. <b>Tel.:</b> (71) 242-0510; (95) 170-04-02; (99) 040-04-02. buyurtma adadi 110 nusxa, qog'oz bichimi A3.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	---	--	--